

**O'zbekiston Respublikasi oiliy va o'rta maxsus talim vazirligi
Surxondaryo viloyati**

Hokimligi o'rta maxsus kasb-xunar talim boshqarmasi

Termiz axborot texnologiyalari va maishiy xizmat kasb-xunar kolleji

"Kinologiya" Yonalish III kurs 10-06 guruh o'quvchisining

Bitiruv malakaviy ishi

Mavzu: Giyoxvand moddalarning turlari va narkomaniya oqibatlari

Bajarildi:

Bollyev Ilyos

Bitiruv malakaviy

Ishi raxbari.

Xoliqov A



TERMIZ-2009 Y

Mavzu: Giyoxvand moddalarning turlari va narkomaniya oqibatlari

REJA

I.Kirish

II. Asosiy qism

2.1 Muammoning dolzarbligi

2.2 Giyoxvand (narkotik) moddalar turlari va ularning organizmga ta'siri.

2.3 Keng tarkalgan davolash usullari

2.4 Giyoxvandlik profilaktikasi.

III.Xulosa

IV. Foydalanadigan Adabiyotlar

Kirish

Kelajagi buyuk mustaqil yurtimiz uchun xar tomonlama barkamol, vatanparvar, yuksak madaniyatli, ma'naviy qadriyatlarni e'zozlaydigan etuk yoshlarni tarbiyalashimiz lozim.

xam jismonan, xam ma'naviy sog'lom avlodning turmush tarzini yaratish davr taqozosidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning «Buyuk maqsad yo'ldan adashmaylik» nomli asarida, biz naslimizning kelajagi sog'lom avlod uchun kurash boshladik.

Shu nom bilan maxsus Xalqaro Jamg'arma tuzdik. Bu bejiz emas.

Sog'lom avlod deganda biz faqatgina jismonan baquvvat farzandlarimizni emas, balki ma'naviy boy avlodni ko'zda tutganmiz. Chunki, xar taraflama sog'lom avlodga ega bo'lgan xalqni xech qachon engib bo'lmaydi. «Buni xammamiz yaxshi anglab olmog'imiz shart» deb uqtirib o'tgan edi. Darxaqiqat, sog'lom avlodni shakllantirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, uni amalga oshirish esa, barcha mutasaddilarning bu borada jiddiy faoliyat olib borishlarini taqozo etadi.

Uzbekiston Respublikasi mustakillikka erishgandan sung uzbekiston Respublikasi bir necha xalkaro shartnomalarga a'zo buldi. Shu jumladan, Birlashgan millatlar tashkiloti tashabbusi bilan 1961 yilda tuzilgan Narkotik moddalar tugrisidagi konvensiyaga a'zo buldi va narkotik moddalarni nokonuniy etishtirilishini, nokonuniy tranzit olib utilishini, nokonuniy muomalaga chikarilishini, nokonuniy ishlatilishini nazorat kilish, oldini olish kabi majburiyatini olganligi, 1971, 1989 yillarda Uzbekiston Respublikasi Birlashgan millatlar tashkiloti tashabbusi bilan tuzilgan "Prekursorlar" va "Psixotrop maddalar" tugrisidagi konvensiyaga a'zo bulganligi xamda tegishli majburiyatlarni olganligi va XXI asr muammosi bo'lmish giyoxvandlik illatidan o'sib kelayotgan yosh avlodni asrab avaylashda, ularning tibbiy savodxonligi va madaniyatini oshirishda aloxida axamiyatga ega.

Narkotik moddalarni nokonuniy muomalaga bulishini oldini olish va barkamol avlodni tarbiyalash maqsadiga yo'naltirilgan ushbu malakaviy ishning maktab raxbarlari, litsey, kollej o'qituvchilari, ma'naviy va ma'rifiy ishlar tashkilotchilari, maktabdan tashqari muassasalar xukukni muxofaza kiluvchi organ xodimlari uchun axamiyati katta. Yoshlarni yomon illatlar (giyoxvandlik, OITS kabi) dan asrash, narkotik moddalarni yomon okibatlariga olib keluvchi turlarini xarakteristikalarini mukammal yoritib berish, fukarolarni bu yukumli illatlardan xabardor kilish va ularni ogoxlantirish xozirgi kunning muammolaridan biri xisoblanadi.

Zero, muxtaram Prezidentimiz I. Karimov ta'kidlaganidek, «Yoshlarga milliy vatanparvarlik ruxida ta'lim-tarbiya berish bugungi kunning jiddiy vazifalaridan xisoblanadi». Bu esa, barcha tashkilotlarning xamkorlikdagi faoliyati, kuch-qudrati, zakovati va yoshlarga sog`lom turmush tarzi tamoyillarini singdirish orqaligina amalga oshirilishi muqarrar.

ASOSIY QISM

Psixoaktiv moddalar (PAM) - alkogol, giyoxvand va toksik moddalarga ruju qo'yish, surunkalii ravishda ularga o'rganib qolish, qator mamlakatlar axolisi, ayniqsa yoshlar salomatligiga putur etkazayotgan eng daxshatli muammolardan biri bo'lib qolmokda. So'nggi yillarda tibbiy ko'rsatmalardan tashqari narkotik va toksik kayf qildiruvchi turli moddalarni qabul qilish ko'rsatkichlari shiddat bilan o'sib bormokda. Eng xatarli tomoni shundaki, yoshlar orasida kuchli va og'ir sintetik giyoxvand moddalar - kokain va heroin kabilarga extiyoj kuchayib borayotganligi kuzatilmokdi.

Giyoxvandlik qator tizimli buzilishlar bilan tavsiflanadi. Eng avvalo, modda almashinuvi jarayonida qo'pol o'zgarishlar ro'y beradi, Giyoxvand (modda)lar inson bosh miyasiga maxsus ta'sir etib unga o'rganib qolishga olib keladi. Shu bilan birga, ular bosh miyaning, muxim ichki a'zolarining chuqur zararlanishiga xamda immunitetning pasayib ketishiga sabab bo'ladi. Shaxsning salbiy tomonga o'zgarishi xarakterning zaiflashishi, xulq-atvorning buzilishi, mas'uliyatsizlik, loqaydlik, oilaviy munosabatlarning buzilishi, jinoyatga qo'l urish, o'g'irlik sodir etish kabilar giyoxvandlik uchun xos bo'lgan xolatlardir.

Undan tashqari, maktab yoki o'quv yurtidagi umumiy intizomning buzilishi, o'quvchi va talabalar o'zlashtirishining pasayishi, giyoxvandlarga xos muxit goyasining tarqalishi kabilar xam giyoxvandlik illatining yoshlar muxitiga kirib kelganligini anglatadi.

Tibbiy tomonidan, giyoxvandlik oqibatida gepatitlar, VICHG`OITS, jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklarning ko'payishi tendentsiyasini kuzatish mumkin.

Giyoxvand modda (psixoaktiv modda-PAM) qabul qilayotgan bola (o'smir) qanchalik yosh bo'lsa, uning shunchalik tez va og'ir nogironlikka chalinishi, yoki erta o'lib ketishi extimoli shu qadar ko'p bo'ladi. Shuning o'zi esa, davlatning saloxiyatini pasaytiradigan omil xisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, giyoxvandlikning maxsus belgisi sog'ayish imkoniyatining mavjud emasligidir. Ushbu kasallik surunkali bo'lib, kutilmagan xar qanday vaqtda u qaytalanishi mumkin.

Giyoxvand moddalarga ruju qo'yish va bu moddalarni noqonuniy sotish ko'pchilik mamlakatlarda fojiali miqyosni egalladi.

Rasmiy axborotlardan ma'lum bo'lishicha, er yuzida xar kuni giyoxvandlik oqibatida ko'plab insonlar xayotdan ko'z yumayaptilar.

1 Giyoxvandlik, «oq ajal» domiga ko'plab o'smirlarining kirib qolayotganligi qayg'uli

xoldir. Barchaga ma'lum bo'lgan giyoxvand moddalaridan tashqari, so'nggi 10 yil ichida psixotrop narkotiklar (moddalar) qabul qilayotgan giyoxvandlar soni ko'payib bormokda.

Inson xayoti uchun o'ta xavfli bo'lgan amfitaminlar, gallyutsinogenlar, LSD va lizirin kislotasining boshqa xosilalari shular jumlasidandir.

«Narkotik» («giyoxvand modda») nima deganix Umumjaxon Sog'liqni saqlash tashkilotining ta'rifiga ko'ra, tibbiyotda qo'llanilishidan qat'iy nazar, kayf xissiyotini tug'diradigan va unga ruju qo'yishga (o'rganishga) olib keladigan xar qanday modda narkotik deb ataladi.

«Narkomaniya» atamasi grekcha narke - tildan qolish, qotib qolish va maniya - aqlsizlik, ishqibozlik-so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, jismonan xamda ruxan giyoxvand moddani qabul qilishga ishqiboz bo'lib qolish ruju qo'yish va oqibatda og'ir asoratlarga olib keladigan kasallikka aytiladi.

Giyoxvand (narkotik) moddalar turlari va ularning organizmga ta'siri
«Giyoxvandlik (narkotik) vositalari» yuridik nuqtai nazardan «giyoxvandlik vositalari» bu inson ruxiyatiga kuchli ta'sir qiluvchi xar qanday narkotik, giyoxvandlikka extiyoj uyg'otuvchi moddalardir.

Giyoxvand moddalar deb ataluvchi vositalar doirasiga quyidagi guruxlar kiradi:

a) Tabiiy giyoxvand moldalar:

ko'knori, opium (jargon tilda nomlagshshi: afyun, qoradori, teryak, opiyuxa, ximanka, qoraxon).

Morfin (jargon tilda iomlanishi morfi.mariya, maryanka). Kodein (jargon tilda nomlanishi: katyuxa, koda).

Marixuana (jargon tilda nomlanishi dur plan, klever, bojya, travka, seno).

Gashish (jargon tilda nomlanishi: opilka, chernushka).

b) Yarim sintetik giyoxvand moddalar:

geroin (diamorfin);

gidromorfin (dimorfin);

oksikodon (digidron);

etorfin;

v) Kuchli ta'sir etuvchi sintetik giyoxvand moddalar:

metadon (dolofin);

meperidin, petidin (demerol);

g) Kuchsiz ta'sir etuvchi sintetik giyoxvand moddalar:

propoksifen (darvon);

peptazotsin (talvin);

Barcha narkotik moddalarning inson ruxiyatiga ta'sir etish mexanizmi bir xil bo'lishiga qaramasdan. U yoki bu narkotikning inson organizmiga ta'sirining aniq ko'rinishi aynan shu narkotik turi, xususiyatlari bilan bog'likdir.

Quyida tavsiya etilayotgan tasnif (klassifikatsiya) XXI asrning boshida yuzaga kelgan narkovaziyat (u yoki bu turdagi narkotikning qay darajada tarqalganligi) darajasini inobatga olgan xolda tuzilgan:

-Nasha (anasha) xosilalari (nashadan tayyorlangan narkotiklar);

-Opiatli (qora dorili) narkotiklar (ko'k nordan olingan yoki unga o'xshash ta'sir ko'rsatadigan) narkotiklar;

-Uyqu keltiradigan - tinchlantiradigan narkotiklar;

-Psixostimulyatorlar;

-Gallyutsinogenlar;

-Uchadigan (parlanadigan) narkotik ta'sir etuvchi moddalar. Giyoxvandlik illatiga berilgan bolalar va o'smirlarda mazkur modda (preparat)larni qabul qilishdan xosil bo'ladigan tashqi belgilarni payqash va ularning turlarini adashtirmasdan aniqlashda mazkur preparatlar (guruxlari) xaqida, ularning inson organizmiga, ayniqsa ruxiyati va salomatligiga ta'siri xaqida mukammalroq, tushunchaga ega bo'lish muxim ahamiyatga molikdir.

Nasha preparatlari

Ushbu guruxga mansub bo'lgan narkotik (giyoxvand modda)lar jaxon miqyosida, jumladan O'zbekistonda eng ko'p tarqalgandir. Ulardan eng ko'p qabul ilinadiganlari quyidagilardir:

1. Marixuana - nashaning quritilgan yashil barglari qismi («o't», «o'simlik»). Bu och yashilroq-jigarrang kulrang tusli quritib yanchilgan barg va poyadan iborat.

Qattiq siqilgan (presslangan) to'dachalar shaklida («nasha» yoki «plan») bo'ladi.

2. Gashish – nashaning smolasi, changi va uchining (uch qismining) mayda ezilgani. Bu qoramtir-jigari rang qattiq jism bo'lib, uning konsistentiyasi plastilinni eslatadi va qog'ozda yog'li dog'lar qoldiradi. Gashishning bunchalik darajada tarqalmagan boshqa xosilalari xam mavjud. Uning barcha preparatlari etarli darajada keskin va maxsus xidli, achchiq ta'mli bo'lib, odatda, papirosga tamaki bilan birga-

likda o`ralib, chekiladi.

Nashadagi aktiv (faol) ta'sir etuvchi modda-bu, tetragidrokannabiol alkaloididir. Nasha preparatlarining odatda chekish orqali qo`llanilishi tufayli, ular eng avvalo, giyoxvandlar o`pkasining og`ir zararlanishiga olib keladi.

Shu bilan birga, I. N. Pyatnitskaya qayd etganidek, nasha alkaloidlari jigar va yurakni xam jiddiy zararlantiradi, yurak urishining tezlanishiga olib keladi. Undan tashqari, yurak asab tugunchalari faoliyati buzilishi oqibatida yurak aritmiyasi yuzaga keladi. Bemorning o`zi bilmagan xolda xam EKG usulini qo`llash 100 % xollarda patologiyani aniqlab beradi. ' .

Nashani qabul qilish bosh miyaning og`ir shikastlanishiga olib keladi. Nashaning ta'siri (qabul qilish) to`xtatilganidan so`ng bosh miya faoliyati bir muncha tiklanishi mumkin (ammo, xech vaqtda to`liq tiklanmaydi). Avvaliga psixiatrlar tilida «defektlar» deb ataladigan kam sezilarli o`zgarishlar saqlanib qoladi. Narkotikning qay darajada qabul qilinganligiga ko`ra, ushbu o`zgarishlar tez yoki sekin xosil bo`lishi aniqlangan. Yoshlar orasida keng tarqalgan marixuana (nasha) insonning anglab olish xususiyatini pasaytiradi. xatto, kichik dozalarini qabul qilganda xam xotira zaiflashishi (ayniqsa, o`quv jarayoni uchun muxim bo`lgan qisqa muddatli xotira) mumkin. Marixuana chekadiganlarda masala va maqsadni tushunish funktsiyasi buziladi, diqqat (e'tibor) va fikrni jamlash qobiliyati zaiflashadi, atrofdagilar bilan muloqot qilish xoxishi, unga extiyoj yo`qola boradi.

Oxir oqibatda ilgari quvnoq va xarakatchan inson juda passiv, befarq, sekinlik bilan vaziyatni angelaydigan, arzimagan sabablarga ko`ra, vaxima (sarosima)ga tushadigan, o`zi uchun xam g`amgin bir kimsaga aylanib qoladi.

Nasha chekishni u endi xoxlamay qo`yadi, ammo, afsuski, uning ruxiy yarimtalik xolati doimiy saqlanib qoladi.

Opiat (qora dori)li giyoxvand moddalar.

Ushbu guruxga qora dori (opium)dan tayyorlanadigan barcha giyoxvand modda (narkotik)lar kiritiladi.

Aslida qora dori (opiy)ning o`zi ko`knor o`simligining xali pishmagan chanoqlaridan olinadigan sutsimon shiraning kuritilganidir. Ko`pincha, ko`knordan odamlarning o`zi oddiy yo`l bilan opiy preparatlarining bir necha turlarini tayyorlaydilar, ulardan eng keng tarqalganlari quyidagilardir:

-Ko`knor qipig`i-quruq o`simlikning mayda yanchilgan sarg`ish-jigarrang qismi (ayrim xollarda uni «ko`knor» yoki «ko`xnor» deb yuritishadi);

-Xanka-ko`knor chig`anoqlaridan olingan qoramtir-kulrang shiraning qotirilgani (u opiy xom ashyosi xisoblanadi), 1-1,5 sm diametrli yassi kulchalar shaklida qilinadi;

-Geroïn-yashirincha laboratoriyalarda tayyorlanadigan o`ta kuchli giyoxvand modda. U ovqatda ishlatiladigan sodani eslatadigan kukun bo`lib, noxush xidli, oq, qo`ng`irroq yoki kulrangroq bo`lishi mumkin. Odatda, geroïn achchiq bo`ladi, ammo, uning qand bilan aralashtirilgani shirinroq ta`mli bo`ladi. Bularning xammasi maxsus ishlov berilmasdan o`simlik (ko`knor)dan tayyorlanadigan maxsulotlar bo`lib, ular og`iz bo`shlig`iga tushganida tilni burishtirish xususiyatiga ega. Ularning eritmalari esa. sirka xidi kelib turadigan jigarrang tusga egadir.

-Kofein xam opiatli giyoxvand bo`lib, yo`talga qarshi yoki bosh og`rig`ini qoldiradigan va sanoatda ishlab chiqariladigan tabletka turida bo`ladi;

-Metadon, opiatli guruxga kiradigan sintetik (sun'iy yo`l bilan tayyorlanadigan) giyoxvand modda bo`lib, uni ishlab chiqarish va undan foydalanish O`zbekiston Respublikasida man etilgan. hozirgi paytda opiatlar giyoxvandlikdan ulish va nogiron bulishning asosiy sababichisi bo`lib xisoblanadi bu boradagi axvol shunchalik fojialikki, giyoxvandlik muammosi yuzasidan ish olib borayotgan shifokorlarning eng ko`p kuchlari aynan opiatlar giyoxvandligiga qarshi kurashga yo`naltirilgandir.

Opiatlarning o`ta xavfliligi sabablari nimadax!

-Eng avvalo shundaki, opiatli giyoxvandlar vena ichiga (in'ektsiya yo`li bilan) kiritiladi, Demak, ularni qabul qilishda quyidagi o`ta xavfli yuqumli kasalliklarga chalinish extimolligi (risk) vujudga keladi:

OITS, sifilis (zaxm) xamda «V» va «S» turdagi gepatitlar. Bu, xaqiqatda, real va juda yuqori darajadagi xavfdir.

Shunaqa bo`lib qolganki.O`zbekistonda giyoxvandlar tabiiy xom ashyolardan o`zlariga-o`zlari giyoxvand preparat (moddalar)ni tayyorlashadi. Bunda ular xom ashyoga organik eritmalar va sirka angidridi bilan ishlov berishadi. Tozalash usulining o`ta soddaligi tufayli tayyor «maxsulotda» 1 % dan 5% gacha organik eritmalar va sirka angidridi o`tirib qoladi. Aynan shuning uchun xam giyoxvand preparatdan sirka xidi anqib turadi. Qonga tushgan eritma jigarga xam etib boradi va uni go`yoki, kuydiradi.

Yana bir muxim tomoni shundaki, jigar organizmda oqsil ishlab chiqaradigan asosiy organ xisoblanadi. Jigar xujayralarining zararlanishi oqibatida oqsillar sintezi fojiali tarzda (keskin) pasayadi. Tegishli ravishda immunitet zaiflashadi, qonni ivituvchi

tizim buziladi va xokazolar, Shuningdek, Organik eritmalar va sirka yurak, o`pka va bosh miyani xam zararlantiradi. Undan tashqari, giyoxvandning boshiga (bosh miyasiga) salbiy ta'sir ko`rsatadigan bilvosita omillar xam mavjud:

-Ko`p marotaba takrorlanuvchi urish-janjallar, yiqilishlar natijasida bosh miya chayqalishlari yoki boshning shikastlanishlari ro`y berishi extimoldan xoli emas.

-Opiatlardan xar qanday turining, xattoki odatdagi dozadan bir ozgina bo`lsada, ko`plik qilishi (peredozirovkasi) nafas olish funksiyasining yomonlashuviga (opiatlar nafas olish markazining faoliyatini susaytiradi-«tormozlaydi»), bosh miyaning kislorod bilan etarli darajada ta'minlanmasligiga, shu bilan birga, tabiiyki, miya xujayralaridan bir qanchasining xalok bo`lishiga olib keladi. Ma'lumki, bosh miya xujayralari qayta tiklanmaydi. Giyoxvand modda nosteril eritmalar bilan suyultirilganida (masalan, vodoprovod suvi bilan) qonga mazkur modda bilan birgalikda juda ko`p mikdordagi tirik xamda o`lik mikroorganizmlar xam tushadi. Bu esa, tana temperaturasining 38 gradus S va undan ko`tarilishi, sovuq qotib qaltirash (oznob), ko`ngil aynishi, bosh aylanishi, quvvatsizlik, ba'zida belda va bo`g`imlarda ogriq paydo bo`lishi bilan kechadi.

Ushbu xolat, eng avvalo (xattoki eng engil kechganida xam), shunisi bilan xavfliki yuqori temperaturada xam bosh miya xujayralari xalok bo`ladi.

Oqibatda, giyoxvandpikka duchor bo`lgan bemor qo`shimcha yana bir kasallikka-entsefalopatiyaga (bosh miyaning yallig`lanishiga) yo`liqadi. Bu kasallik xam bosh miya xujayralarining ko`plab nobud bo`lishiga olib keladi.

Giyoxvand bemorlarning zaxm (sifilis) kasalligi bilan og`rishi xollari sunggi paitlarda kupayib bormokda. Eng yomoni shundaki.zaxm oxirgi laxzalaridagina aniqlanmoqda. OITSga yo`liqayotgan bemorlar soni xam kundan-kunga o`sib bormokda. Statistika ma'lumotlariga ko`ra, in'ektsiya (nina sanchish) yo`li bilan giyoxvand moddalarni qabul qiladigan giyoxvandlarning 70% dan ko`prog`i OITSni yuqtirganlar.

Opiatlar organizmda bevosita kaltsiy almashinuvining buzilishiga sabab bo`lganligi tufayli giyoxvandlar orasida suyak to`qimasi va tishlari zararlanganlari juda kup uchraydi. Kaltsiy suyak va tish tarkibidagi asosiy moddalardan biri bo`lganligi uchun ushbu toifadagi bemorlar suyaklari va tishlari juda katta zarar ko`radi.

Shunday qilib, opiatlarni qabul qilish o`z navbatida gepatit, zaxm (sifilis), OITS kabi o`ta xavli kasalliklarning yuqishiga xamda jigar, yurak, o`pka va bosh miyaning shikastlanishiga. immunitetning keskin pasayishiga, yiringli yuqumli kasalliklarning kelib chiqishi xavfining o`ta oshishiga olib keladi. Shuning uchun xam, giyoxvand moddalarni, muntazam ravishda qabul qiladigan bemorlarning o`rtacha yashash umri

giyoxvand moddani ilk bor qabul qilgan vaqtidan boshlab 7-10 yilni tashkil etadi.

Uxlatuvchi-tinchlantiruvchi (sedativ) preparatlar

O`zining va o`z yaqinlarining taqdiri xaqida qayg`urish, tez-tez asab taranglanishi (stress) kabi xolatlar ayrim insonlar tomonidan turli xildagi tinchlantiruvchi va uxlatadigan preparatlarning uyqu dorilarining qabul qilinishining ko`payishiga sabab bo`lmoqda.

Uyqu dorilarining xammasi xam narkotikka (giyoxvand moddaga) o`xshagan ta'sirga ega emas, ammo, barcha uyqu dorilari organizmda (odamda) tobelikni keltirib chiqarishi va giyoxvand moddalar kabi ta'sir etuvchi xususiyatlarni namoyon qilishi mumkin.

Uyqu dorilari orasida barbamil, fenobarbital va shunga o`xshashlar bu jixatdan bir muncha xavfli xisoblanadi. Qolgan uyqu dorilari esa (fenozeepam, reladorm, relanium, elenium va boshqalar), uzok vaqt davomida yoki belgilangan dozadan ko`proq qabul qilinganida ruxiy yoki jismoniy tobelikni shakllantirishi mumkin.

Bu degan so`z, ushbu tabletkalarni doimiy ravishda va ko`payib boruvchi dozalarda qabul qilish lozim bo`lib qoladi, demaqdir.

xozirgi paytda reladorm, barbituratlar qatoriga kiruvchi preparat keng tarqalgan.

Uzining mast (karaxt) qiluvchi ta'siri jixatidan barbituratlar alkogolga uxshaydi, ammo undan farqli o`laroq, barbituratlar asoratlari tezroq ruyobga chiqadi va og`irroq kechadi, barbituratlar bosh miya, jigar, yurakka qattiq shikastlatiruvchi ta'sir ko`rsatadi.

Uning ustiga, barbituratlar xumori (a6stinentsiyasi) xuddi spirtli ichimlik og`ir abstinentsiyasiga (poxmelega) uxshagan bo`ladi.

Barbituratlarni 1-3 oy davomida .muntazam ravishda qabul,qilish ularga nisbatan xam ruxiy, xam jismoniy tobelikni keltirib chikaradi. Jismoniy tobelikda nafaqat bemorning axvoli yomonlashadi balki uni uzoq muddat davomida uyqusizlik xam qiynaydi.

Barbituratlarni xaddan ziyod ko`p qabul qilish bosh miyaning maxsus zararlanishiga entsefalopatiyaga olib keladi.

Barbituratlarga o`rganib (unga tobe bo`lib) qolgan giyoxvand (narkoman)lar juda qo`pol, jizzaki, jaxldor bo`ladilar. Narkotik moddalar ichida faqatgina barbituratlardan mast bo`lish odamning juda jaxldor va qaxri qattiq bo`lishiga sabab bo`ladi.

Barbituratlarni uzoq vaqt (6 oy va undan ko`proq) qabul qilish oqibatida bemorda psixoz, gallyutsinatsiyalar (voqelikda mavjud bo`lmagan voqea-xodisalarni sezish,

eshitish, ko`rish xolati), shubxa yoki rashkning paydo bo`lishi, muqarrardir. Ana shunday psixozlarning asorati juda ko`p xollarda qayg`uli bo`ladi. Barbituratlarni muntazam qabul qiladiganlar (barbituromanlar)da yurak mushaklari xamda jigar distrofiyasi yuzaga keladi.

Odatda, barbituratlarga tobe bo`lib qolgan bemorlar entsefalopatiya va uning asorati (qaltirab tutqanoq tutishi, psixozlar paytida baxtsiz xodisalar, fojealarning ro`y berishi) oqibatida olamdan o`tadilar. I. N. Pyatnitskaya ma'lumotlariga ko`ra, barbituromanlarning o`z-o`ziga suinqasd qilishi natijasida o`lish xollari axoli o`rtasidagi ana shunday xollar o`rtacha ko`rsatkichlaridan 60-80 marotaba yuqori turadi.

Psixostimulyatorlar

Psixostimulyatorlarni qabul qilish, fikrlash qobiliyatini tezlashtiradi. Fikrlar sayoz, yuzaki va o`ylamasdan bayon etiladi. O`ziga asossiz va xaddan ziyod ishonch xissi va tashabbuskorlik ortadi. Psixostimulyatorlardan ba'zilari ishtaxani pasaytirishi mumkin.

Psixostimulyatorlar guruxiga quyidagilar kiradi:

- Efedrin kukun yoki eritma (ampulada) xolida. Ushbu preparat solutan va sunoref tarkibiga xam kiradi;

- Psevdoefedrin va efedron;

- Fenomen yoki amfetamin, tabletka, kapsula va kukun xolida. Amfetamin va unga o`xshash moddalar «o`simliklar asosida ozishga mo`ljallangan ajoyib preparatlar» tarkibiga kiritilishi mumkin. Shu tufayli, tez ozdiradigan bunday preparatlardan «ogox» bo`lishni taqozo etamiz;

- Pervitin, «ekstazi», kokain, krek, kofein va boshqalar.

Barcha psixostimulyatorlar-dopingdir. Ular ikkita umumiy xususiyatlarga egadirlar:

- modda almashinuvini (jumladan, bosh miyada) kuchaytiradi;

- yurak urishini tozlashtiradi va qon bosimini ko`taradi. Bunda organizm zaxirasidagi energiya sarflanadi va psixostimulyatorlar qabul qilinganida u qayta tiklanishga ulgurmaydi, oqibatda organizm (eng avvalo, markaziy asab tizimi) xoldan toya boradi. Qon tomiri, yurak tizimi xam jiddiy zarar ko`radi. Aritmiya, miokard infarkti sodir bo`ladi.

Psixostimulyatorlarni uzoq qabul qilishdan so`ng og`ir depressiyalar (tushkunlik), psixozlar (xattoki, kaifiyatning uta tushib ketishi tufayli o`z-o`ziga suiqaasd qilish xollari)

uchraydi

Gallyutsinogenlar

Mazkur guruxga kiradigan preparatlarning aniqroq nomi-«ongni (tafakkurni) o`zgartiradigan preparatlar»dir. Bu guruxga Rsilotsibum turiga oid turli zamburug`lar, uchuvchi narkotik ta'sir etuvchi moddalar (UNTM), psixodisleptik (PSP)lar kiradi. Barcha gallyutsinogenlar inson ruxiy salomatligiga o`ta yomon ta'sir etuvchi moddalar bo`lib xisoblanadi.

Ular, ayniqsa, bosh miyani izdan chiqaradi, gallyutsinogenlar odamni zaxarlaydi, psixoz keltirib chiqaradi, shuningdek, ularni inson ruxiyatini parchalaydigan-psixodisleptiklar (PSP) xam deb yuritiladi.

Uchadigan (parlanadigan) narkotik ta'sir etuvchi moddalar (UNTM)

Ushbu gurux diapazoni ancha keng bo`lib, uning tarkibiga organik uchuvchi suyuqliklar va gazlarning ko`pchiligi kiritilgan. Bu moddalarni qabul qilish (xidlash) tufayli bemorlar o`zlarida eyforiya (ko`tarinki kayfiyat)ni chaqiradilar. xavoni tozalaydigan (yangilaydigan) turli xil aerozollar, dezodorantlar, sochga sepiladigan laklar, «Moment» kleyi, erituvchi va dog`larni ketkizadigan eritmalar xam mazkur guruxga kiritiladi.

UNTM organizmdagi barcha organ va to`qimalarni zararlantiradi. Organizmga shikast etkazish tezligi va zaxarlash kuchining yuqoriligi bo`yicha UNTMlar eng tezkor xisoblanadi.

UNTMni asosan, bolalar qabul qilganligi tufayli, ular o`z tengkurlaridan xam jismoniy, xam intellektual rivojlanish bo`yicha juda tez orqada qolib ketadilar.

Keng tarkalgan davolash usullari

xozirgi paytda, davolash kursini qabul qilgan narkomanlardan faqat 5-10 foizigina qaytib narkotik qabul qilmasligi statistika ma'lumotlaridan aniqlangan. Shunga qaramasdan, giyoxvandlikka qarshi kurashish lozim. Inson narkotikka o`rgangani (tobe bo`lgani)dan boshlab, u tuzalmas xastalik soxibi bo`lib qoladi. U o`zi, xatto bilmagan va xoxlamagan taqdirda xam muntazam ravishda narkotikni qabul qilishga majbur bo`ladi. Shuni aslo unutmaslik kerakki, giyoxvand (narkoman) umuman

davolanmaydi. U qayta tarbiyalanadi yoki o'z ruxiyatini qayta quradi.

xozirgi kunda giyoxvandlikdan qutulish uchun ajoyib ta'sir etuvchi juda ko'p turli davolash usullari targ'ib qilinadi. Ana shulardan bir nechtasini xavola etamiz:

-Opiatlar antagonistlarini qo'llash. Bu preparatlar qatoriga paltrekson, palokson, dormikum va boshqalar kiradi.

Mazkur gurux preparatlari nerv xujayralaridan, nerv oxirlaridan geroinning qoldig'ini siqib chiqaradi, narkomaniyadan davolanishning eng og'ir davri-«lomka»; etarli darajada og'riqsiz va tez o'tadi. Ammo, ushbu usulning salbiy tomoni xam bor: opiatlar antagonistlarini faqat statsionar (kasalxona) sharoitidagina qo'llashga ruxsat etiladi! Yomon tomoni shundaki paltrekson qabul kilinganida geroinning odatdagi dozasi etarli bo'lmay qoladi, u «kayf» bermaydi.

Narkoman dozani ko'paytirsa. u dozaning oshib ketishidan o'lishi mumkin. Opiatlar antagonistlari «Detoks» dasturiga binoan ko'pchilik narkologik klinikalarda qo'llanilib kelinmokda.

-«Kodlash» usulini qo'llash. «Kodlash» usullari turlicha bo'ladi va shok terapiyasi printsiplariga asoslangandir. «Kodlash» usuli bilan faqatgina xaqiqatda., so'zsiz vrachga ixlos qo'ygan, unga ishonadigan va vrachning xamma aytganlarini bajaradigan bemor tuzaladi. Irodasi etishmaydigan narkomanga bu usul foyda bermaydi.

-« Anonim narkomanlar» xalqaro dasturi. xozirgi vaqtda eng qulay rehabilitatsiya usuli xisoblanadi, bu usul, giyoxvandlikka o'z xoxishi bilan chek qo'ygan insonlarning o'zaro qo'llab-quvvatlashiga asoslangan;

-Shuningdek, ignarefleks terapiyasi, «kimyoviy ximoya», shaxsga yo'naltirilgan psixoterapiya va boshqa usullar xam mavjud.

Giyoxvandlik profilaktikasi

Narkomaniyaga qarshi kurashning eng ishonchli yo'li-bu profilaktikadir. ma'lumki, xar qanday kasallikni davolashdan ko'ra, uning oldini olish osonroq. Giyoxvandlik o'ta makkor kasallik, u nafaqat inson salomatligiga putur etkazadi, balki u bemor oilasini buzadi, uning jamiyatdagi mavqeiga raxna salad, moddiy boyligini kemiradi, oxir oqibatda bunday bemor olamdan ko'z yumadi. Ushbu kasallikning o'ziga xos «maxsus xususiyati» va «uni davolashning o'ta og'irligi» giyoxvandlikning oldini olishning keng miqyosdagi kompleks chora tadbirlarini qo'llashni talab etadi.

Giyoxvandlik profilaktikasiga oid kompleks tadbirlar mexanizmining

qo'yidagicha bo'lishi ko'zda tushilgan:

- Giyoxvandlik profilaktikasi asoslari bo'yicha maktab o'qituvchilari, maxallalar raxbarlari, uchastka vrachlari xamda militsionerlarni o'qitish;

- O'qitilgan maktab o'qituvchilari yordamida maktablardagi turli yoshdagi o'qituvchilar orasida giyoxvandlik profilaktikasi bo'yicha dasturiy darslar o'tkazish:

- O'quvchilar va o'qituvchilar kuchi bilan davra suxbatlari, seminarlar.suxbatlar, OITS va giyoxvandlikka qarshi kurash bo'yicha referatlar, rasmlar badiiy xavaskorlik tanlovlari o'tkaziladi;

- Vrach-narkologlar, militsiya, prokuratura va boshqa xukukni muxofaza kiluvchi organlar xodimlari ishtirokida xar oyda maktab va maxallalarda giyoxvandlikka qarshi kurash yunalishida seminarlar, uchrashuvlar o'tkazish;

- Bolalar va o'smirlar o'rtasida giyoxvandlik profilaktikasi ishlari kup qirrali bo'lishi lozim. Bu ishda, giyoxvandlikning tarqalishiga qarshi ta'sir mexanizmini yaratishda, bizning tajribalarimizga ko'ra, jamiyatning barcha qatlamlari ishtirok etishi kerak, aniqrog'i, giyoxvandlik profilaktikasi multisektoral xarakterga ega bo'lishi darkor. Bu:

- Maktab va boshqa ta'lim maskanlari;

- Maxalla qo'mitalari;

- Oila;

- Sog'liqni saqlash tizimining birlamchi zvenosi (poliklinikalar);

- xuquqni ximoya qilish organlari xizmatchilari (uchastka militsionerlari).

Mazkur yo'nalish bo'yicha jamiyatning barcha tuzilmalari vakillari qisqa muddatli o'quv kurslarida o'qitilsalar va ularga axoli o'rtasida giyoxvandlik profilaktikasi bo'yicha ish olib borish xuquqi berilsa maksadga muvofik buladi.

Turli yoshdagi fukarolar orasida giyoxvandlik profilaktikasi bo'yicha dasturlari yaratilishi va darslarni, giyoxvandlik profilaktikasi bo'yicha qisqa muddatli kurslarda o'qitilgan o'qituvchilar, xukukni muxofaza kiluvchi organ xodimlari olib borishlari kerak.

Xulosa

Uzbekiston Respublikasi "Bojxona xizmati tugrisida"gi konunda bojxona organlariga:

O`zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini ximoya qilish va o`z vakolati doirasida uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash;

bojxona nazoratidan o`tkazilishi kerak bo`lgan tovarlar va transport vositalari shunday nazoratdan o`tkazilishini ta'minlash;

bojxona xaqidagi qonun xujjatlari buzilishining, shu jumladan kontrabandaning oldini olish, uni aniqlash va ularga chek qo`yish;

davlat xavfsizligini, jamoat tartibini sakdash, fuqarolarning xayoti va sog`lig`ini ximoya qilish, atrof muxitni muxofaza etish chora-tadbirlari amalga oshirilishiga

ko`maklashish kabi vazifa va majburiyatlar yuklatilgan. Bu vazifa va majburiyatlarni bajarish uchun:

bojxona organlarida xizmat kilayotgan xodimlar xozirgi zamon talabi darajasida bilimli;

bojxona organlari zamonaviy texnika bilan jixozlangan;

xalkaro va xukukni muxofaza kiluvchi tashkilotlar bilan xamkorlikda ish tashkil etilishi lozim.

xalqaro xamkorlik, boshqa tashkilotlar bilan o`zaro xarakatlar orqali, uyg`unlashgan axborot texnologiyalar, xavf-xatarni boshqarish va taxlili, bojxona protsiduralaridan foydalangan xolda bojxona organlari xalqaro savdoda respublikamiz manfaatlarini va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, tadbirkorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish xamda mamlakat iqtisodiyoti rivojini yanada rag`batlantirish, davlatni ichki bozori va moliyaviy manfaatlarini ximoya qilishi, chegaralarning xavfsizligini va jamiyat muxofazasini ta'minlashda faol ishtirok etishi, bojxona xududida bojxona nazorati va tovar aylanishi samaradorligini oshirishi, bojxona qonunchiligi buzilishini oldini olishi, bartaraf etishi va aniqlashi mumkin.

Yukorida keltirilgan talablarni tulik amalga oshirish yuli bilan yoshlarni yigirma birinchi asar vabo bulmish giyoxvandlik asoratidan saklagan bulamiz.

Uzbekiston Respublikasi bojxona organlarining faoliyatini muvofiklashtiruvchi me'yoriy xujjatlarda bojxona ekspertizasini ilmiy asosda tashkil etish, tovar ishlab chikaruvchilar va istemolchilarni manfaatlarini ximoya kilish moksadida Respublikamizga kirib kelayotgan yoki Respublikamizdan chikib ketayotgan tovarlarga vakolatli tashkilotlar tomonidan tegishli sertifikatlar berilishi va bojxona ekspertizasi orkali narkotik moddalar kirib kelishini oldini oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- O`zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi, «Adolat», Toshkent. 2000 yil.
- O`zbekiston Respublikasining «Boj tarifi to`g`risida»gi qonuni .«Iqtisodiyot va xuquq dunyosi», Toshkent. 1998 yil.
- Uzbekiston Respublikasi «Bojxona xizmati tugrisida»gi qonuni «Iktisodiyot va xuquq dunyosi», Toshkent. 1998 yil.
- Gabiani A. A. «Jar yoqasida: giyoxvandlik va giyoxvandlar». M., 1990 y.
- Garanskiy A. N. (red.). «Giyoxvandlik».-«Giyoxvandlarga tobelikni engish bo`yicha uslubiy qo`llanma. M., 2000 y.
- Danilin A. G., Danilina I V. «Bolalarni giyoxvand moddalardan qanday qutqarish mumkin». M., Poligraf markazi, 2000 y.
- Makeeva A. «Bolani giyoxvandlik jariga nima itaradi». M. 1999 y, № 4.
- Maksimova N. Yu. «Voyaga etmaganlar alkogolizmi va giyoxvandligi profilaktikasi». Rostov-Don, «Feniks», 2000 y.
- Pyatnitskaya I. M. «Giyoxvandlik». M., 1994 y.
- Solomzes Dj. A., Churson V., Sokolovskiy. «Giyoxvand moddalar va jamiyat», M., OOO «Illayn», 1998 y.
- Fridman L. S, Fleming N. F., Roberts D. G., Xayman S. E. «Narkologiya», M., Binom, SPb, «Nevskiy dialekt», 1998 y.